

JAMOAT TRANSPORTIDA



Sarvar bilan Shuhrat avtobusga chiqdi. Qarashsa, avtobusda bo'sh joylar ko'p ekan. Ular yetti bekatdan keyin tushishlari kerak edi, shuning uchun o'rindiqqqa o'tirib olishdi. Yo'l-yo'lakay avtobus odamlar bilan to'ldi.

– Ko'zingni yum. O'zimizni uxlaganga solib o'tiraylik, bo'lmasa, kattalarga joy berish kerak bo'ladi, – dedi Shuhrat.

– Bo'pti, – dedi Sarvar.

Ikkovi ko'zini chirt yumib ketaverdi. Bir mahal ko'zlarini ochib qarashsa, tushadigan bekatlaridan o'tib ketishgan ekan!



1. Nima uchun ular kerakli bekatdan o'tib ketdilar?
2. Ularning yolg'oni nimaga olib keldi?
3. Ularning o'rnida siz nima qilgan bo'lardingiz?





O'qing. Jamoat transportida yo'lovchi o'zini qanday tutishi kerakligini aniqlang.

Avtobusni iflos qilish

Esnaganda, yo'talganda, aksirganda og'izni yopish

Odamlarni turtib-itarib o'tish

Keksalarga, bolali va homilador ayollarga joy berish

Odobli bo'lish, "Rahmat", "Iltimos" deb muomala qilish

Birovning oyog'ini bosib olsa, uzr so'rash

Telefonda baqirib gaplashish

Transportga chiqishdan oldin tushadigan yo'lovchilarni o'tkazib yuborish

Harakat vaqtida haydovchini chalg'itish

Maxsus tutqichlarni ushlab turish





Metro



Metropoliten yoki metro – tezyurar temiryo‘l transporti. Bu shahar jamoat transportining bir turidir.

Odatda metro poyezdlari yer ostidagi temir izlarda harakatlanadi. Ammo keyingi yillarda metroning yerusti yo‘llari ham ishga tushirildi.



Metropolitenning birinchi 6 kilometrli yo‘li Londonda qurilgan. U 1863-yilning 10-yanvarida ishga tushirilgan.



Metrodan foydalanish qoidalari

Yo'lovchilar majburiyatlari:

- ✓ yo'l haqini to'lash;
- ✓ eskalatorning tutqichidan ushlab, o'ng tomonida turish;
- ✓ poyezd to'liq to'xtamagunicha platformaning chizig'idan o'tmaslik;
- ✓ vagona keksalarga, bolali va homilador ayollarga joy berish;
- ✓ vagonning eshiklariga suyanmaslik;
- ✓ yo'lovchilarning kirishiga, chiqishiga xalaqit bermaslik.

Taqiqlanadi:

- ✗ turniket va to'siqlarning ustidan oshib o'tish;
- ✗ eskalatorida yugurish, uning zinalariga o'tirish;
- ✗ vestibul, o'tish yo'laklari, bekatlar platformalarini hamda vagonlar salonini iflos qilish.



Velosiped minishni yoqtirasizmi?

Velosipedda yurish orqali siz atrof-muhitni muhofaza qilishga o'z hissangizni qo'shasiz. Chunki velosiped transportning ekologik toza va foydali turi sanaladi.

Velosiped:

- atrof-muhitga zararli chiqindilar ajratmaydi;
- jismoniy harakat tufayli mushaklaringiz va tanangiz chiniqadi;
- kerakli manzilga toza havoda yetib olishingizga yordam beradi.



Zamonaviy yoki qadimiy transport turlari haqida qisqa hikoya tayyorlang.